

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov</b>	
O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'satkichlari .....	137
<b>M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov</b>	
<i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi .....	148
<b>A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov</b>	
Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari .....	153
<b>M.X.Akbarova</b>	
Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili .....	166
<b>X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova</b>	
<i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi.....	172
<b>E.A.Ergashev</b>	
Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati .....	178
<b>S.Q.Kimyonazarov</b>	
Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'ralar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida .....	183
<b>E.A.Ergashev</b>	
So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi .....	188

## GEOGRAFIYA

<b>Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov</b>	
Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	193
<b>Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov</b>	
Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar .....	198
<b>J.A.Namozov, M.M.Mirislomov</b>	
Jahonda ekologik turizm riovjanishining regional tahlili .....	210
<b>I.K.Aripov</b>	
Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari .....	216

## ILMIY AXBOROT

<b>I.Adashev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	222
<b>Z.A.Ergasheva</b>	
Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili .....	228
<b>I.Adashev</b>	
Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati.....	232
<b>V.A.Giyosova</b>	
Murojaatning sotsiolingvistik tabiatи .....	236
<b>D.M.Zaripova</b>	
Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation.....	241
<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi .....	248
<b>S.Sh.Rasulov</b>	
"Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi.....	251
<b>S.A.Rahmonberdiyeva</b>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi .....	255
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar .....	261
<b>D.M.Azimova</b>	
Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	264



УО'К: 796.0:338.48

**SPORT VA TURIZM JISMONIY MADANIYAT MASHG'ULOTLARINING ASOSIY VOSITASI**

**СПОРТ И ТУРИЗМ КАК ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

**SPORT AND TOURISM AS THE PRIMARY MEANS OF PHYSICAL CULTURE ACTIVITIES**

**Tuychiyev Ashurali Ibragimovich** 

Farg'onan davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya**

*Maqolada sport jamiyat madaniyatining asosiy elementi sifatida sport mahoratini oshirish, harakat san'atini egallash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish orqali jismoniy tarbiya jarayonida asosiy vositalardan biri ekanligi keng ma'noda ifoda etilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье утверждается, что спорт, как основной элемент культуры сообщества, является одним из основных средств в процессе физического воспитания, способствуя улучшению спортивных навыков, овладению движеческим искусством и развитию физических качеств.*

**Abstract**

*This article expresses in broad terms that sports, as a fundamental element of community culture, serve as a primary means in the physical education process through enhancing athletic skills, mastering movement arts, and developing physical qualities.*

**Kalit so'zlar:** sport, turizm, harbiy-amaliy mashqlar, turistik sayohatlar, turizm, hayotiy-amaliylik xususiyati, jismoniy sifatlar, harakat malakalari va ko'nikmalari, yurish, yugurish, to'siqlardan oshish va boshqa hayotiy-amaliy mashqlar, mutaxassis yu'riqchi, roxod.

**Ключевые слова:** спорт, туризм, военно-прикладные упражнения, туристические поездки, туризм, практическая жизненная характеристика, физические качества, двигательные навыки и умения, ходьба, бег, преодоление препятствий и другие практические жизненные упражнения, специализированное руководство, экспедиции.

**Key words:** sport, tourism, military-applied exercises, tourist travels, tourism, practical-life characteristics, physical qualities, movement skills and competencies, walking, running, overcoming obstacles, and other practical-life exercises, specialized guidance, expeditions.

**KIRISH**

*Sport so'zi avvaliga o'yin ma'nosida tushunilar edi, keyinchalik esa ko'ngil ochish vositasi deb qarala boshlangan. Chunki shug'ullanuvchilar faqat o'zaro kuch sinashib musoba qalashar edilar ("Jismoniy tarbiyaning nazariyasining asosiy tushunchalari" mavzusiga qarang). Xatto XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha sportga yuqori natijalarga erishish yoki musobaqada g'olib bo'lib chiqish, ko'ngil ochish, dam olish vosi tasi, deb qaralib kelindi. Uzoq vaqtgacha ta'lim tarbiya ishlarida ahamiyatga ega bo'limgan, hayot uchun keraksiz narsa deb baho berildi.*

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

*Sportning jismoniy tarbiya vositasi ekanligi sohaning yetuk olimlari – Lesgaft (1909), Ebber (1925), Gaulgofer va Shtreyxer (1930), A.A.Ter-Ovonesyan (1978) va boshqalar tomoni dan o'tkazilgan tadqiqotlar orqali o'zining ilmiy nazariy isbotini topdi.*

*Sport ko'p qirrali ma'noga ega bo'lib, ijtimoiy hayotning mahsulidir. Jamiyatda sport bilan shug'ullanishning jismoniy tarbiya jarayoni deb qabul qilinadi. Sport jamiyat madaniyatining asosiy elementi sifatida sport mahoratini oshirish, harakat san'atini egallash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish orqali jismoniy tarbiya jarayonida asosiy vositalardan biri. Sportning qaysidir turi bilan shug'ul- lanish orqali jismoniy tarbiya jarayonida harakat qobiliyatini rivojlantirishning imkoniyati*

## ILMIY AXBOROT

cheksiz ekanligi hozirgi kunda sir emas. Buning isboti sifatida o'rnatila yotgan rekordlar, sport natijalarini aytishimiz mumkin.

Mavzuga doir bugungi kunda, respublikamizning bir qator olimlari E.Y.Davrenov, Y.F.Kuramshin, R.A.Abdumalikov, T.I.Xoldarov, B.M.Xusanboyev, L.A.Tulaganov, va boshqalar tomonidan sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiya muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-izlanishlar ishlari olib borilgan.

Oliy o'quv yurti talabalarining jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirish yuzasidan S.P.Yevseyev, M.M.Barkoshev, A.V.Aksenov, G.A.Abramishvili, A.A.Patsuluyev, I.S.AnSUPOV va boshqalar tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sport natijasini yaxshilash uchun olib borilayotgan izlanishlar, yangi uslubiyotlar, vositalar, sport tayyorgarligining mazmunini boyitmoqda. O'z navbatida bu ko'plab sportchi va trenerlarning jismoniy tarbiya amaliyotini yangi innovasion loyihamar, nazariy va metodikasiga oid yangi ilmiy-amaliy qonuniyatlar bilan boyitilishiga sabab bo'lmoxda.

Hozirgi kunda sportga qo'shni, qardosh mamlakatlar bilan o'zaro do'stlik va hamjihatlik o'rnatishdek, musobaqalar paytida chin insoniylik hislatlarini chuqurroq namoyon etishni yuzaga chiqarish vazifasi yuklatilgan.

Turli ijtimoiy sharoitda sportning ayrim xususiyat lari bir-biri bilan butunlay zid keladi, deb qaraldi. Bunga sobiq sovet sportining maqsadi va vazifasi hamda burjua sportidagi professionalizmning mazmuni misol bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sport bilan ko'proq o'quvchilar, talabalar, armiya va flot xizmatchilari shug'ullanadilar. Asosiy sabab sport harbiy va hayotiy tayyorgarlikdagi muhim omildir. Bundan tashqari ularda sportning iqtisodiy roli asosiy o'rinni egalaydi. Sport bilan ular dam olish, odam organizmining formasi, funksiyasini o'zgartirish uchun emas, yashash, moddiy ne'mat yaratish uchun shug'ullanadilar.

Chunki sportning tarixiy rivojlanishi shunga olib keldiki, uning ayrim turlari xalqaro obro' qozondi, hayotiy-zaruriy ahamiyat kasb etdi, jismoniy tarbiya uchun asosiy vosita sifatida tan olindi. Yengil atletika, og'ir atletika, klassik kurash, boks, suzish, basketbol, futbol, gandbol, tennis, velosport, voleybol, suvda to'p o'yini, sport gimnas tikasi va uning boshqa turlari bo'yicha milliy va halqaro federasiyalar tuzildi. Osiyo, Ovrupa, Jahon championatlari, Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari hamda sportning milliy turlari deb atalib, ta'llim-tarbiya jarayonida fodalaniladigan *hayotiy-amaliy, harbiy-amaliy mashqlar hamda sport* turlari va boshqalar tarbiya jarayonining asosiy vositasi sanaladi.

*T u r i z m* – reja asosida oldindan mo'ljallanib sayohat, ekskursiya, poxod, qoyaga chiqish, sayrlar tarzidagi mashg'ulotlar bo'lib, moddiy ne'mat yaratilmay, yana jismoniy qobiliyat va jismoniy sifatlarni rivojlan tirish va aktiv dam olish vositasidir. Geologlar, gidrogeograflarning sayohatlaridan ma'lumki, ular o'z sayohatlarini moddiy qiymat yaratish maqsadida rejalashtiradilar. Jismoniy tarbiya jarayonida esa uning xususiy tomonlaridan foydalaniлади.

Turistik sayohatlarda tabiiy to'siqlaridan o'tish malaka lari shakllantiriladi, aqliy, jismoniy, axloqiy, ruhiy, estetik jihatlar tarbiyalanadi. Ishtirokchilarda jamoaga munosabat, qo'rqmaslik, kuch, chidamlilik sifatlari shakllanadi. Sayohatda tog', dalaning turmush tarzi, unda yashash, mehnat qilish, sharoitga moslashish malakasi va ko'nikmalari rivojlanadi. Turizm boshqa jismoniy tarbiya omil lariga nisbatan hayotiy-amaliyligi, muhiti, sharoiti bilan tarbiyaning boshqa jihatlaridan farqlanadi. Foydalaniладиган, qo'llana digan jismoniy mashqlarining zahirasining ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi.

***Turizm jismoniy tarbiya vositasi sifatida o'zining quyisi dagi asosiy xususiyalariga ega:***

- Hayotiy-amaliylik xususiyati.*** Mustaqil faoliyat, tashabbuskorlikni tarbiyalaydi. Rahbarlik, boshqarish, mo'ljal olish, yo'lni tanlash va uni to'g'ri topish, xaritani o'qiy olishdek qator malaka-larni shakllantiradi va rivojlanadir.

- Turizm jismoniy sifatlar, harakat malakalari va ko'nikmalarining barchasini teng tarbiyalaydi*** va shakllantiradi, chunki unda ajratib olingan qaysidir sport turi yoki kasbiy tayyorgarlik uchun kerak bo'lgan hislatlarni rivojlanirish nazarda tutilmaydi.

- Safarga tayyorlanish va safar davomida barcha faoliyat, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan yurish, yugurish, to'siqlardan oshish va boshqa hayotiy-amaliy mashqlardan foydalaniлади.***

4. Turizm shug'ullanuvchiga *ma'lum darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish talabini* qo'ymaslik xususiyati bilan sportga o'xshaydi.

5. Turizm paytida jismoniy mashqlar organizmga iqlim sharoiti (sovuj, issiq, shamol ) va marshrutining relyefiga qarab *turlicha ta'sir ko'rsatish xususiyati*.

6. Turizmda *kuch sinashish, musobaqalashish asosiy o'r'in daligi xususiyati*

7. Turistik sayohat qatnashchilarining *o'zlaridan munosib rahbar tanlay olishi xususiyati*.

Rahbar 16 yoshdan yuqori, tajribaga ega bo'lgan kishi bo'lishi shart. Turizmda rahbarning o'zi ham qatnashchilari bilan ishtirok etadi. U ma'lum qo'shimcha vazifalarni bajaradi: turistik sayohat marshrutini, qatnashchilar tarkibini, ular shaxsini o'rganadi, jihozlarni ko'rib chiqadi va amaliy masalalarni hal qiladi.

Sayohat katnashchilari yosh sayyoohlар bo'lsa, ularga yoshi 19 dan kam bo'lmagan *m u t a x a s s i s y o 'r i q c h i* etib tayinlanadi.

8. Turizm mashg'ulotlarining asosiy formasi *poxoddir*. Poxodda turizm paytida bilish kerak bo'lgan barcha malaka va ko'nikmalardan, uslubiyotlardan foydalaniladi, hayotiy zaruriy harakat malakalari shakllantiriladi , zahirasi boyitiladi.

Mashg'ulotlarda suzish, tirmashib chiqish va hokazolar, shuningdek, topografiya bilan ishlash, to'siqlardan oshishlarning hammasi o'zlashtiriladi.Turizmga jismoniy tarbiya vositasi tarzida tabiiy to'siqlardan o'tish, yuk ko'tarishni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari bilan qo'shib olib borish zaruriy natijalarni beradi.

### XULOSA

Adabiyotlar va amaliy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz va dunyo hamjamiyatida so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport turzmi bo'yicha me'yoriy dasturlar to'läligicha ishlab chiqilmaganligini ko'rishimiz mumkin, bu esa mamlakatimizda turizm soxasidagi muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu masala o'z yechimini topishni taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, 1960-90-yillargacha qator mualliflar (A.D.Novikov, L.P.Matveyev, B.A.Ashmarin va boshqalar) tarbiya jarayonida qo'llanilgan mashqlarni tarixan shakllangan jismoniy tarbiya tizim laridagi belgilariga ko'ra turkumladilar. Lekin tizimlarning yangilanishi, tarbiya jarayonida qo'llaniladigan mashqlar takomillashganlarining vujudga kelishi, yangi mashqlarning tarixan qabul qilingan mashqlar tarkibiga sig'may qola boshladilar. Chunki xususiyatlarga ko'ra ular gimnastika, o'ynilar, sport yoki turizm mashqlaridan deyarli farq qilar edi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 3-iyundagi PQ 3031- sonli qarori. LEX.Uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagи "Yoshlarni ma'naviy- axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3907-sonli qarori. Qonun xujjatlari ma'lumotlari bazasi / www.lex.uz.
3. Макерова, Н. В. К вопросу об эффективности профессиональной подготовки кадров для отрасли спортивно-оздоровительного туризма средствами иностранного языка / Н. В. Макерова // Ученые записки университета им. П. Ф. Лесгафта. – 2017. – № 6 (148). – С. 128-130.
4. Azizov, M. M. (2021). ogli. The effectiveness of using the nordic walking wellness exercise in extracurricular time of primary school students. *Eur J Sport Sci*, 1(2), 32.
5. Керимов, Ф. А., & Азизов, М. М. (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ДАРСДАН ТАШҚАРИ ВАҚТЛАРИДА СОГЛОМЛАШТИРУВЧИ СКАНДИНАВЧА ЮРИШ МАШҚИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ. *Fan-Sportga*, (6), 42-45.